

**MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA YARATILGAN “ONA TILI VA
O‘QISH SAVODXONLIGI” DARSLIGIDA KO‘ZDA TUTILGAN
MAQSADLAR**

Samarqand viloyati Payariq tumani 96-umumiy o‘rta ta’lim maktabi

boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Mamadiyorova Nafisa Ochilovna

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Milliy o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi haqida darslikdan ko‘zlangan maqsadlar aytib o‘tilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Milliy o‘quv dasturi, o‘quv reja, metodologiya, konsepsiya, grammatik savodxonlik;

ANNOTATION: this article mentions the objectives of the textbook about the textbook “mother tongue and reading literacy”, developed on the basis of the national curriculum.

KEYWORDS: National Curriculum, curriculum, methodology, concept, grammatical literacy;

АННОТАЦИЯ: В этой статье излагаются цели учебника “родной язык и грамотность чтения”, разработанного на основе национальной учебной программы.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Национальная учебная программа, учебный план, методология, концепция, грамматическая грамотность;

Bugungi kunda yurtimizda ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, umumiy o‘rta ta’lim ayniqsa ta’limning poydevori bo‘lgan boshlang‘ich ta’limga katta e’tibor qaratilmoqda. Umumiy o‘rta ta’limda eski davlat ta’lim standartlari (DTS) o‘rnini bosadigan va ta’limga o‘zgarishlar kirita oladigan Milliy o‘quv dasturi ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya

tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq “Boshlang‘ich sinflarda yozish va o‘qish ko‘nikmalarini uyg‘unlikda shakllantirish maqsadida ona tili va o‘qish fanlarini yagona darslik asosida o‘qitib borish” kompleks chora-tadbirlar dasturiga kiritilishi ham bejiz emas, albatta. Bu esa boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar dunyoqarashi, ijodiy tafakkuri, nutq madaniyati hamda badiiy matn nitushunish, uning mazmunini anglash va idrok etishning nazariy asoslari ilmiy, ilmiy-metodik jihatdan yuksak samaradorlikka erishishga zamin yaratadi. Maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturini amalga oshirishning beshta asosiy yo‘nalishi bo‘yicha maktab ta’limini rivojlantirish, ta’lim tizimida qo‘llaniladigan ta’lim standarti va ta’lim dasturlarini takomillashtirish bo‘yicha yo‘riqnomalar ham tayyorlandi. Shunga ko‘ra, Xalq ta’limi vazirligi huzurida mamlakatimiz olimlari va tajribali amaliyotchi o‘qituvchilaridan iborat umumiy o‘rta ta’lim standartlari va o‘quv-metodik materiallar ekspertizasini o‘tkazish bo‘yicha ekspert guruhi tuzilib, ta’lim sohasida qo‘llaniladigan ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini takomillashtirish yuzasidan keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borildi. Guruhdagi boshlang‘ich umumiy o‘rta ta’lim fanlari bo‘yicha DTS asosida har bir sinf o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan talablarni qayta ko‘rib chiqish va ekspertiza natijalari asosida ularni takomillashtirish vazifalarini bajardilar. Respublikamiz uzluksiz ta’lim tizimida umumiy o‘rta ta’lim asosiy tayanch bosqich bo‘lib, bu bosqichda o‘zbek tilidan o‘quvchilarga kundalik ijtimoiy hayotda davlat tilida og‘zaki va yozma muloqot olib bora olishlariga qaratilgan tayanch bilimlar beriladi va o‘qitishning kommunikativ-nutqiy tamoyili asosida o‘quvchilarda o‘zbek tili bo‘yicha egallangan bilim va ko‘nikmalarni muloqot faoliyati jarayonida qo‘llash malakasi shakllantiriladi Bugungi kunda ta’limning eng asosiy tayanch bo‘g‘ini hisoblanuvchi umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun Milliy o‘quv dasturi ishlab chiqildi va “Milliy o‘quv dasturi” deb nomlanishining o‘zi bizga katta umidlar baxsh etmoqda. Shuningdek, o‘zbek tilini o‘qitish metodikasini tubdan isloh qilish, ayniqsa mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlarga

o‘zbek tilini intensiv o‘rgatishni ta‘minlaydigan zamonaviy darsliklar yaratish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Umumiy o‘rta ta‘limning Milliy o‘quv dasturi (MO‘D) o‘quv-me‘yoriy hujjat bo‘lib, u o‘quv reja va fanlarning o‘quv dasturlari, o‘qitish metodologiyasi va baholashni ishlab chiqishga asos bo‘ladi. U bo‘yicha yaratilayotgan yangi darsliklar, o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar, mashq daftarlari, o‘quv-metodik materiallar ta‘limni rivojlantirishga xizmat qiladi. U pedagogik amaliyotni va baholash yondashuvlarini qo‘llab-quvvatlaydi va ushbu elementlarning barchasini birlashtirishga imkon beradigan dasturdir. Shu paytgacha Ona tili va O‘qish fanlari alohida o‘qitilgan. Endi esa ushbu ikki fanni birlashtirgan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” deb nomlangan yagona fan dars soati saqlab qolingan holatda tashkil etildi. O‘qish fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she‘rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko‘maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat. Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda asosiy e‘tibor o‘quvchida tilga doir to‘rt ko‘nikma:

- o‘qib tushunish,
- tinglab tushunish,
- nutq so‘zlash
- yozish
- grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o‘rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o‘qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda quyidagi tamoyillarga tayaniladi:

1. Ta‘lim berishda kommunikativ yondashuv, ya‘ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek, integrativ, faoliyatga yo‘naltirilgan, onglilik, kashfiyotchilik, farqli va tanqidiy yondashuvlar e‘tiborda bo‘lishi lozim.

2. Tilni amaliyotda qo‘llash, ya’ni matnni o‘qish orqali ham grammatika, ham uning

3. Grammatik savodxonlik doirasida o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, so‘zlarning ma’no nozikliklari, farq va o‘xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so‘zlarni bog‘lab gap, gaplardan esa matn tuza olish, birikmalardagi ma’noviy va grammatik, matndagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, o‘zgaralar fikrini to‘g‘ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatini to‘g‘ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va malakasini o‘stirishga e’tibor qaratiladi.

4. O‘qish savodxonligi doirasida o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o‘quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish; o‘qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; har qanday uslubdagi matnni o‘qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmasini oshirish nazarda tutiladi. Barcha uslubdagi turli sohalarga oid matnlar bilan tanishish barobarida mashq va topshiriqlar orqali fanlararo integratsiya amalga oshiriladi.

5. O‘quvchining o‘qib, eshitib tushunish, og‘zaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish maqsadida ularning har biriga alohida e’tibor qaratiladi.

6. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, tilning ifoda imkoniyatlarini tushunishi va his eta olishi, “so‘zni hazm qila olish” imkoniyatlari e’tiborga olinadi.

7. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o‘rgatish orqali ijodiy tafakkuri, fikrlash doirasi shakllantirib boriladi.

8. Yozma nutq bilan bog‘liq beriladigan topshiriqlarda yozish strategiyalari taqdim etiladi. (Odatda bolaning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, matn yaratish ko‘nikmasini rivojlantirish maqsadida savollar, rasmlar yoki kuzatuvlar asosida

matn tuzish bilan bog‘liq mashq va topshiriqlar berib boriladi, ammo bu jarayonda qanday qilib yozish masalasi e‘tibordan chetda qoladi. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida ushbu jihatlarga e‘tibor qaratilgan: noto‘liq matnni to‘ldirish, berilgan namuna asosida yozish, taqdim etilgan tanlovlar asosida yozish; savollarga ketma-ketlikda javob yozish; syujetli rasmlar asosida matn yozish kabi).

Darslikdagi har bir bo‘lim o‘ziga xos tilshunoslikka oid bilimlarni berishga mo‘ljallangan bo‘lib, birinchi sinfning birinchi bo‘limi – “Men, sen, u va ular bo‘limi” da o‘quvchilar matn tarkibidan qarindoshlikni bildirgan so‘zlar va kishilarning ismlarini ajrata olishni va ularning imlosini, topshiriqlarni bajarish jarayonida savollarga tartibli javob berishni, vaqtni ifodalovchi so‘zlar va ularning imlosini, raqamlar orqali berilgan sonlarni harflar orqali ifodalashni, so‘zlar orasida vergulning qo‘llanishi bilan bog‘liq mashq va topshiriqlar ustida ishlashni, bayram nomlarining birinchi so‘zi bosh harf bilan yozilishini, yaqin qarindoshlarni bayram bilan tabriklash uchun tabriknoma yozishni, matnni mantiqiy qismlarga bo‘la olishni, matn uchun reja tuzishni o‘rganadilar.

Ikkinchi sinf darsligining aynan shu bo‘limida o‘quvchilarda berilgan matn tarkibidan ma‘nolari yaqin bo‘lgan so‘zlarni ajratish, matn tarkibidan ma‘nolari yaqin bo‘lgan so‘zlarni ajratish, matn tarkibidan maktab hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan narsa nomlariga so‘roq berish orqali ularni ajratish, ularning umumiy nomini aniqlash, “-dosh” qo‘shimchasi orqali yangi so‘z yasash, tabriknoma yozish, shu bilan birgalikda tabriknoma matnida tabriklanayotgan kishi ismidan so‘ng ko‘pincha undov belgisi qo‘yilish, matnda so‘z yoki jumla takroriga yo‘l qo‘ymaslik uchun u, bu, shu kabi so‘zlardan foydalanish mahalla yoki ko‘chalarga atab qo‘yilgan nomlarni bosh harflar bilan yozish kabi ko‘nikmasi hosil qilinadi.

1-sinfning 2-“Tabiat ne‘matlari” bo‘limi orqali o‘quvchilarda tilshunoslikka oid „H“ va „X“ tovushining hosil bo‘lish o‘rni, ularni to‘g‘ri talaffuz qilish orqali bir-biridan farqlash, dialog, gaplarning ohangiga qarab tinish belgilarni

2-sinfning 3-bo‘limida, ya‘ni “Tabiat ne‘matlari” bo‘limida so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib yozish, odam, hayvon yoki narsalarga xos sifatlarni aniqlash

uchun qanday? yoki qanaqa? so‘rog‘i berilishi , narsalarning nomini bildiruvchi so‘zlarga nima? yoki nimalar? deb savol berilishi , harakatni ifodalovchi so‘zlarga nima qildi? , nima qilyapti?, nima qilmoqchi? kabi so‘roqlar berilishi o‘quvchilarga qoidalar va mashqlar orqali tushuntirib o‘tilgan.

2-sinfning 4- “Sog‘ tanda-sog‘lom aql” bo‘limida gaplarni bog‘lovchilar yordamida bog‘lash, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash, so‘z yasalishiga oid dastlabki tushunchalar amaliy tarzda o‘rgatiladi. Yuqorida sanab o‘tilgan ikkala sinf doirasidagi har uchala bo‘lim singari boshqa bo‘limlar ham tilshunoslikning ma‘lum bir bilimlarini berishga qaratilgan bo‘lib, yangi darslikda bu bilimlar o‘quvchi o‘zlashtirishi uchun juda oson va tushunarli qilib yoritilgan.

Milliy o‘quv dasturi bo‘yicha yaratilayotgan yangi darsliklar, o‘qituvchilar uchun qo‘llanmalar – o‘qituvchi kitoblari, mashq daftarlari, o‘quv-metodik materiallar ta’limni rivojlantirishga xizmat qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Milliy o‘quv dasturi – 2021
2. Iroda Azimova , Klaraxon Mavlonova, Sa‘dullo Qurunov, Shokir Tursun ,, Ona tili va o‘qish savodxonligi 1-sinf" . Toshkent -2021
3. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa‘dullo Qurunov, Shokir Tursun ,, Ona tili va o‘qish savodxonligi 2-sinf" . Toshkent -2021